XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-12-90-8-118-K/25 Uzun tumani

Uzun tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025- yil 27- dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Surhondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/139-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uzun Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Uzun tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **131 mlrd 407 mln 100 ming so‘m** va xarajatlari esa **131 mlrd 407 mln 100 ming so‘mga** qabul qilinganligi, shuningdek Uzun tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **332 mln 656 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga, tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga, soliqlar va yig‘imlardan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2025-yil uchun ajratmalar me’yori 3-ilovaga, 2026-yil uchun tuman budjetining daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari 4-ilovaga hamda 2026-yilda Uzun tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 mlrd 593 mln so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Xasanov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Djumayev), tuman Soliq inspeksiyasi (A.Xushvaqtov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

-budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

-o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

-budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

-tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

-o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

-budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Kamolov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **SAFAROVA DILOROM SHAYDILOVNA**

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-90-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/r	Daromad turlari	2026 yil uchun prognoz
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**131 407 100**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 257 500
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6 249 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	74 078 900
	shundan, jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan olinadigan soliq	1 205 000
4	Qo‘shimcha qiymat solig‘i	847 500
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 830 000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 541 000
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 080 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 267 000
9	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	30 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 994 000
	qishloq xo‘jaligi korxonalari	*2 737 000*
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*– 1 094 800*
	Boshqa korxonalar	*257 000*
11	Davlat bojlari	3 379 000
12	Jarimalar	2 783 000
13	Yig‘imlar	1 760 000
14	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	200 000
	DAROMADLAR JAMI	**131 407 100**

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-90-8-118-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Uzun tumanining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

Ko‘rsatkichlar		Cheklangan miqdor
	Xarajatlar - jami	**131 407 100**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**44 934 113**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	35 851 908
	- maktabgacha ta’lim	19 509 835
	- umumiy ta’lim	16 342 073
1.2	Sog‘liqni saqlash	0
	shundan: Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga transfertlar	*0*
1.3	Madaniyat	3 166 246
1.4	Sport	5 751 308
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	164 651
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**19 865 051**
	shu jumladan:	
2.1	Obodonlashtirish	16 684 811
2.2	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	2 336 766
2.3	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	370 663
2.4	Veterinariya qo‘mitasi (laboratoriya)	472 811
3.	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**0**
4.	**Davlat markaziy hokimiyat organlari**	**0**
5.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**29 826 505**
6.	**Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini saqlash**	**0**
7.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 593 000**
8.	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**2 388 067**
9.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**32 800 364**
	shundan:	

	“Tashabbusli budjet”	*28 474 364*
	“Mening maktabim”	*4 326 000*
10.	**Boshqa xarajatlar**	**0**

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-90-8-118-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Uzun tumanida 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

Foyda solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Aylanmadan soliq	Qo‘shimcha qiymat solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
50%	97%	100%	100%	50%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	50%	50%	55%	100%

1.Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892) daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i bundan mustasno), soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar tuman va viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-90-8-118-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun Uzun tuman budjetining daromad va xarajatlar prognozi

ming so‘m

T.r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
	JAMI	**131 407 100**	**131 407 100**
1	**Uzun tumani**	**131 407 100**	**131 407 100**

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-90-8-118-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yil uchun Uzun tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘m

T.r	Hudud nomi	Miqdor
1	**Uzun tumani**	**332 656**